

Diplom varaqasini tartibi, ichidagi belgilanishi kerak bolgan ma'lumotlar bo'yicha me'yoriy hujjat va nizomlar

OLIY MA'LUMOT TO'G'RISIDAGI BAKALAVR VA MAGISTR DIPLOMLARINING DAVLAT NAMUNALARINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga davlat ta'lim standartlari asosida davlat namunasidagi bakalavr va magistr diplomlarini berish, diplom va uning ilovasidagi axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ilg'or xorijiy amaliyotda foydalaniladigan namunalar:


1. Quyidagilar:

Oliy ma'lumot to'g'risidagi bakalavr va magistr diplomlarining davlat namunalari va ularning tavsiflari **1-ilovaga** muvofiq;

Oliy ma'lumot to'g'risidagi bakalavr va magistr diplomlari ilovalarining davlat namunalari **2-ilovaga** muvofiq;

Oliy ma'lumot to'g'risidagi bakalavr va magistr diplomlarining davlat namunalari va ularning tavsiflari

1. BAKALAVR DIPLOMI



Oliy ma'lumot to'g'risidagi bakalavr diplomi davlat namunasining TAVSIFI

Bakalavr diplomining muqovasi tomonlari 148x210 mm o'lchovda yaxlit qoplangan to'q havorang sun'iy charmdan tayyorlangan ko'rinishga ega.

Uning yuz tomonida bosma naqsh usulida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va pastroqda lotin yozuvidagi o'zbek tilida BAKALAVR DIPLOMI so'zleri yozilgan.

Diplom muqovasi ichki qismi qalin, tomonlari 145x200 mm o'lchamda suv belgili qog'ozda ofset bosma usulida besh xil: matn qismi qora va to'q havorang, tasviriy elementlar esa havorang rang va och havorangda bosiladi;

Sahifa markazining oq qismiga tomonlari 80x82 mm o‘lchovli o‘ziga xos ko‘rinishdagi havorang bo‘yoqda tushirilgan O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi joylashtiriladi. Uning atrofi naqshli rastrdan tashkil topgan och havorang mayda milliy naqshlik fondan iborat. Sahifaning yuqori qismida fon ustidan 20 mm enlikda havorang hoshiya tushirilgan hamda hoshiya ustidan diplomning ikkala sahifasiga “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BAKALAVR DIPLOMI” hamda “REPUBLIS OF UZBEKISTAN BACHELOR’S DIPLOMA” so‘zlari bosiladi;

Diplomning ikkala sahifalari hoshiyasi tagidan V lotin harfi va sakkiz xonalik sondan iborat bo‘lgan raqam to‘q havorangda bosiladi.

Imtiyozli diplomlar uchun “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BAKALAVR DIPLOMI” va “REPUBLIS OF UZBEKISTAN BACHELOR’S DIPLOMA” so‘zlari pastiga oltin bo‘yoqda lotin yozuvidagi o‘zbek tilida “IMTIYOZLI” va ingliz tilida “WITN NONOURS” so‘zlari yozilgan

Har bir sahifaning ikki tomonidan sakkiz qirrali yulduzning oltin rangdagi tasviri joylashtiriladi. Sakkiz qirrali yulduzlar tomonlari 15x15 mm dan iborat bo‘lgan kvadratlar tushirilishi orqali tashkil etilgan. Shuningdek, diplom blankasining o‘ng tomoni quyi qismida fonsiz 35x35 mm o‘lchamda QR-kod tizimi joylashtiriladi.

Diplom 7 darajali himoyaga ega:

- 1) ikki xil usuldagи chop etishdan foydalanish: asosiy qism uchun ofset bosma usuli, raqamlarni chop etish uchun yuqori usul;
- 2) mashinada nusxa ko‘chirishni qiyinlashtiradigan nimtatir bo‘yoqlardan foydalanish;
- 3) fondagi mayda milliy naqshni rastr setkalaridan foydalanib, chop etish;
- 4) maxsus milliy ornament naqshi tushirilgan, zichligi 120 g/m^2 bo‘lgan suv belgili qog‘oz ishlatish;
- 5) Davlat gerbini och havorang bo‘yoqda tasvirlash;
- 6) sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan sakkiz qirrali yulduzlarni maxsus tovlanuvchi oltin bo‘yoqlarda tasvirlash;
- 7) sakkiz shaklli o‘zgaradigan raqamdan foydalanish.

2. MAGISTR DIPLOMI

 <p>MAGISTR DIPLOMI</p>	<p>(Мурасаси)</p> <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAGISTR DIPLOMI M № 000000</p> <p>Davlat attestatsiya komissiyasining 20 ____ yil _____ dagi qaroriga binoan</p> <p>(Name/Address of the educational institution, date, stamping word) ga</p> <p>(Graduate's surname, first name, other names) mashnaxasidigi bo'yicha</p> <p>MAGISTR DARAJASI v. _____ (Signature/initials)</p> <p>Rektor: M.O. Ro'yxatga olish raqami: _____ (Signature name and place)</p>	<p>(Jan momonu)</p> <p>REPUBLIC OF UZBEKISTAN MASTER'S DIPLOMA M № 000000</p> <p>In accordance with the decision of the State Attestation Commission from _____</p> <p>(Graduate's surname, first name, other names) is awarded with _____ (in the specialty)</p> <p>MASTER'S DEGREE and qualified as _____ (qualification) Rector: P.S. Registration number _____ (Date, place)</p> <p></p>
---	---	---

Oliy ma'lumot to'g'risidagi magistr diplomi davlat namunasining TAVSIFI

Magistr diplomining muqovasi tomonlari 148x210 mm o'lchovda yaxlit qoplangan to'q qizil sun'iy charmdan tayyorlangan ko'rinishga ega.

Uning yuz tomonida bosma naqsh usulida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va pastroqda lotin yozuvidagi o'zbek tilida MAGISTR DIPLOMI so'zleri yozilgan.

Diplom muqovasining ichki qismi qalin tomonlari 145x200 mm o'lchamda suv belgili qog'ozda ofset bosma usulida besh xil: matn qismi qora va to'q qizil rangda, tasviriy elementlar esa qaymoqrang va och qaymoqrangda bosiladi.

Sahifa markazining oq qismiga tomonlari 80x82 mm o'lchamli o'ziga xos ko'rinishdagi qaymoqrang bo'yqdagi tushirilgan O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri joylashtiriladi. Uning atrofi naqshli rastrdan tashkil topgan och qaymoqrang mayda milliy naqshlik fondan iborat. Sahifaning yuqori qismida fon ustidan 20 mm enlikda qaymoq rangdagi hoshiya tushirilgan hamda hoshiya ustidan diplomning ikkala sahifasiga "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAGISTR DIPLOMI" hamda "REPUBLIS OF UZBEKISTAN MASTER'S DIPLOMA" so'zleri bosiladi.

Diplomning ikkala sahifalari hoshiyasi tagidan M lotin harfi va sakkiz xonalik sondan iborat bo'lgan raqam to'q qizil rangda bosiladi.

Har bir sahifaning ikki tomonidan sakkiz qirrali yulduzning oltin rangdagi tasviri joylashtiriladi. Sakkiz qirrali yulduzlar tomonlari 15x15 mm dan iborat bo'lgan kvadratlar tushirilishi orqali tashkil etilgan. Shuningdek, diplom blankasining o'ng tomoni quyi qismida fonsiz 35x35 mm o'lchamda QR-kod tizimi joylashtiriladi.

Diplom 7 darajali himoyaga ega:

- 1) ikki xil usuldagagi chop etishdan foydalanish: asosiy qism uchun ofset bosma usuli, raqamlarni chop etish uchun yuqori usul;
- 2) mashinada nusxa ko'chirishni qiyinlashtiradigan nimtatir bo'yoqlardan foydalanish;

3) fondagi mayda milliy naqshni rastr setkalaridan foydalanib, chop etish;

Oldingi tahrirga qarang.

4) maxsus milliy ornament naqshi tushirilgan, zichligi 120 g/m^2 bo‘lgan suv belgili qog‘oz ishlatish;

5) Davlat gerbini och qaymoq rangda tasvirlash;

6) sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan sakkiz qirrali yulduzlarni maxsus tovlanuvchi oltin bo‘yoqlarda tasvirlash;

7) sakkiz shaklli o‘zgaradigan raqamdan foydalanish.